


# Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga

2021 9 Fevral



Alisher Navoiy

O'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tavallud topgan.

Navoiy mantiq, falsafa, riyoziyot va boshqa fanlar bilan ham shug'ullangan. Shoir o'zbek va fors-tojik tillarida bir qancha she'rlar bitib, ikki til bilimdoni sifatida shuhrat

qozonadi. O'zbek tilidagi she'rlarida "Navoiy" ("navo" - kuy so'zidan), fors-tojik tilidagi she'rlarida esa asosan "Foniy" ("fano" - vaqtincha, o'tkinchi so'zidan) va ba'zan "Navoiy" taxallusini qo'llaydi. Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60 000ga yaqin misrani tashkil etadi.

\*\*\*

Jonimdog`i «jim» ikki dolingga fido,  
Anding so`ng «alif» toza niholingga fido,  
«Nun»i dog`i anbarin hilolingga fido,  
Qolg`on iki nuqta ikki xolingga fido.

Shoir ijodining yuksak cho`qqisi "Xamsa" asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo`lib, turkiy tilda to`liq "Xamsa" yaratdi va turkiy tilda shunday ko`lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. "Xamsa" tarkibiga "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab`ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlar kiradi. Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo`lsada, maxsus "Lisonut-tayr" dostonida, "Nasoyimul-muhabbat" manqabasi"da, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Arbain", "Munojot" singari asarlarida aks etgan.